MOYLI ZIG‘IR (*LINUM USITATISSIMUM L.*) NAV VA TIZMALARINING FENOLOGIK RIVOJLANISH BOSQICHLARI HAMDA AGROBIOLOGIK XUSUSIYATLARINI BAHOLASH

Azizov Bekzod G‘ayrat o‘g‘li
Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti

Annotatsiya: *Mazkur tadqiqotda G‘uzor tumani dala tajriba maydonida moyli zig‘irning (Linum usitatissimum L.) 25 ta nav va tizmalarining fenologik rivojlanish bosqichlari hamda agrobiologik xususiyatlari o‘rganildi. Tajribalar randomizatsiya usulida tashkil etilib, ekish ishlari 28-fevral kuni amalga oshirildi. Vegetatsiya davrida unib chiqish, shoxlanish, g‘unchalash, gullash va ko‘saklash fazalari bo‘yicha muntazam fenologik kuzatuvlar olib borildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, KR22-FLAXPYT-IR-03, KR22-FLAXPYT-IR-09, KR22-FLAXPYT-IR-14, KR22-FLAXPYT-IR-16 va KR22-FLAXPYT-IR-22 tizmalari andoza Baxorikor naviga nisbatan vegetatsiya bosqichlariga ertaroq kirishi bilan ajralib turdi. Ayniqsa, KR22-FLAXPYT-IR-03 tizmasi unib chiqish, shoxlanish, g‘unchalash va gullash fazalarida yuqori erta pisharlik xususiyatini namoyon etdi. Olingan natijalar erta pishar, qisqa vegetatsiya davriga ega hamda iqlim o‘zgarishi sharoitlariga moslashgan istiqbolli zig‘ir genotiplarini aniqlash imkonini berdi. Ushbu namunalardan seleksiya dasturlarida boshlang‘ich manba sifatida foydalanish, yuqori hosilli va sifatli moyli zig‘ir navlarini yaratishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit suzlar: *Moyli zig‘ir, fenologik kuzatuv, vegetatsiya davri, nav, tizma, unib chiqish, shoxlanish, g‘unchalash, gullash, ko‘saklash.*

Kirish: Moyli zig‘ir xalq xo‘jaligida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan moyli ekinlardan biri hisoblanadi. Uning urug‘i tarkibida yuqori miqdorda moy va oqsil mavjud bo‘lib, oziq-ovqat, farmatsevtika hamda texnika sanoatida keng qo‘llaniladi. So‘nggi yillarda iqlim o‘zgarishi, qurg‘oqchilik va yuqori haroratning kuchayishi moyli zig‘ir hosildorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli erta pishar, yuqori hosilli va noqulay muhit omillariga chidamli navlarni yaratish seleksiyaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi G‘uzor tumani sharoitida moyli zig‘irning 25 ta nav va tizmalarining fenologik rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish hamda seleksiya uchun istiqbolli namunalarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida unib chiqish, shoxlanish, g‘unchalash, gullash va ko‘saklash fazalari kuzatilib, andoza Baxorikor naviga nisbatan qiyosiy baholandi. Olingan natijalar seleksiya ishlarida qimmatli boshlang‘ich manbalarni tanlashda muhim ahamiyatga ega.

G’uzor tumani dala tajriba maydonida moyli zig’irning 25 ta nav va tizmalari redaminizatsiya usulida joylashtirildi. har bir delyanka 5 m^2 yer maydoniga ekish tadbirlari traktor yordamida 28 fevral sanasida ekildi.

Moyli zig’ir nav va namunalarning unib chiqish fazasini tahlil qilinganda unib chiqish sanasi 13-17 mart kunlariga to’g’ri keldi. Andoza nav sifatida olingan Baxorikor navi 15-mart kuni unib chiqdi. Andoza navga nisbatan erta muddatda unib chiqqan tizmalar KR22-FLAXPYT-IR-09, 13 mart, KR22-FLAXPYT-IR-22, 13 mart, KR22-FLAXPYT-IR-20, 14 mart, KR22-FLAXPYT-IR-03 14 mart, sanasida unib chiqganligi kuzatildi.

Shohlash fazasigacha bo’lgan davrda sekin rivojlanib shohlashdan gullashgacha bo’lga davr intinsev ravishda o`sadi ya’ni o’rtacha 3-5 sm o’suv davri oxirgi bosqichida o’suvdan to’xtab doni rivojlanadi.

Shohlash fazasi tahlil qilinganda 8-12 aprel sanasida o’tganligi aniqlandi. Andoza nav sifatida olingan Baxorikor navi 9-aprel kunida shoxlash fazasiga o’tganligi kuzatildii. Andoza navga nisbatan KR22-FLAXPYT-IR-03, 8 aprel, KR22-FLAXPYT-IR-11, 8 aprel, sanasida shohlash fazasiga o’tganligi aniqlandi. Moyli zig’ir nav va namunalarining g’unchalash fazasi tahlil qilinganda 12-23 aprel sanasiga to’g’ri keldi. Baxorikor navi 21 apel sanasida g’unchalash fazasiga o’tganligi kuzatildi andoza naviga nisbatan tizmalarda KR22-FLAXPYT-IR-03, 12 aprel, KR22-FLAXPYT-IR-14, 19. aprel, KR22-FLAXPYT-IR-24, 18. aprel sanasida g’unchalash fazasiga o’tganligi kuzatildi.

1-Jadval

Moyli zig’ir nav va namunalarining o’suv davri davomiyligi (G’uzor 2026y)

№	Nav va tizmalar	Unib chiqish, sana	Shoxlash sana	G'unchalash, sana	Gullash, sana	Ko'sakcha hosil bo'lish,sana

1	**Baxorikor (andoza)**	15. Mar	09.Apr	21.Apr	29.Apr	08.May
2	KR22-FLAXPYT-IR-06	16. Mar	10.Apr	19.Apr	29.Apr	09.May
3	KR22-FLAXPYT-IR-12	16. Mar	10.Apr	21.Apr	29.Apr	08.May
4	KR22-FLAXPYT-IR-18	17. Mar	10.Apr	21.Apr	30.Apr	09.May
5	KR22-FLAXPYT-IR-24	16. Mar	10.Apr	21.Apr	29.Apr	08.May
6	KR22-FLAXPYT-IR-01	17. Mar	12.Apr	22.Apr	30.Apr	09.May
7	KR22-FLAXPYT-IR-07	17. Mar	10.Apr	22.Apr	02. May	10.May
8	KR22-FLAXPYT-IR-13	17. Mar	10.Apr	23.Apr	30.Apr	09.May
9	KR22-FLAXPYT-IR-19	17. Mar	10.Apr	23.Apr	01. May	09.May
10	KR22-FLAXPYT-IR-25	16. Mar	10.Apr	21.Apr	29.Apr	07.May
11	KR22-FLAXPYT-IR-02	16. Mar	10.Apr	21.Apr	29.Apr	09.May
12	KR22-FLAXPYT-IR-08	16. Mar	10.Apr	21.Apr	29.Apr	10.May
13	KR22-FLAXPYT-IR-14	17. Mar	11.Apr	21.Apr	29.Apr	09.May
14	KR22-FLAXPYT-IR-20	14. Mar	08.Apr	21.Apr	29.Apr	09.May
15	KR22-FLAXPYT-IR-26	16. Mar	11.Apr	22.Apr	25.Apr	05.May
16	KR22-FLAXPYT-IR-03	14. Mar	11.Apr	12.Apr	21.Apr	01.May
17	KR22-FLAXPYT-IR-09	13. Mar	12.Apr	21.Apr	03. May	09.May
18	KR22-FLAXPYT-IR-15	16. Mar	08.Apr	21.Apr	02. May	09.May
19	KR22-FLAXPYT-IR-21	16. Mar	09.Apr	21.Apr	03. May	10.May
20	KR22-FLAXPYT-IR-27	16. Mar	08.Apr	21.Apr	04. May	11.May

21	KR22-FLAXPYT-IR-04	17. Mar	12.Apr	21.Apr	04. May	11.May
22	KR22-FLAXPYT-IR-10	17. Mar	12.Apr	22.Apr	29.Apr	08.May
23	KR22-FLAXPYT-IR-16	17. Mar	12.Apr	19.Apr	30.Apr	09.May
24	KR22-FLAXPYT-IR-22	13. Mar	12.Apr	22.Apr	30.Apr	09.May
25	KR22-FLAXPYT-IR-28	16. Mar	12.Apr	22.Apr	01. May	11.May
Eng yuqori kursatkic		17. Mar	09.Apr	23.Apr	04. May	11.May
O'rtach kursatkich		15. Mar	06.Apr	20.Apr	21.Apr	08.May
Eng past kursatkich		13. Mar	04.Apr	12.Apr	29.Apr	01.May

Nav va tizmalarda gullash fazasi 29 aprel va 4 may sanasida o’tganligi aniqlandi. Andoza nav sifatida olingan Baxorikor navi 29 aprel tizmalarda KR22-FLAXPYT-IR-03, 21. aprel, KR22-FLAXPYT-IR-14 28 aprel ya’ni erta muddatda gullash fazasiga o’tganligi aniqlandi qolgan tizmalar kech gullash fazasiga o’tganligi kuzatildi.





1-rasm Moyli zig’ir nav va tizmalarining fenalogik kuzatuvlari

Olimlarning fikricha ko’saklari kichik, o‘rta yoki yirik bo‘lib, ko‘sagining uchi o‘tkir shaklda bo‘lib har uyada ikkitadan urug‘ joylashgan bir ko‘sakda 10 tagacha urug‘ hosil bo‘ladi. ko‘saklari pishganda ochilmaydi, lekin, ko’sagi ochiladigan (yoriladigan) va urug’i to’kiladigan shakllari ham mavjud.

Olib borilgan tadqiqotlarga ko`ra moyli zig’ir nav va namunalarining ko’saklash fazasiga 1-11 may sanasiga to’g’ri keldi. Andoza nav sifatida olingan Baxorikor navi 8-may sanasida ko’saklash fazasiga o`tgan bo’lsa andoza navga nisbatan tizmalarda KR22-FLAXPYT-IR-16, 1-may, KR22-FLAXPYT-IR-06, 2-may,

KR22-FLAXPYT-IR-21, 7 may, hamda qolgan tizmalarda teng va kech muddatda ko’saklash fazasiga o`tganligi aniqlandi.

Xulosa

G‘uzor tumani dala tajriba maydonida o‘rganilgan moyli zig‘irning 25 ta nav va tizmalari fenologik rivojlanish bosqichlari bo‘yicha o‘zaro farq qilishi aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, unib chiqish fazasi 13–17 mart, shoxlanish 8–12 aprel, g‘unchalash 12–23 aprel, gullash 21 aprel–4 may, ko‘saklash esa 1–11 may kunlari kuzatildi. Andoza Baxorikor naviga nisbatan KR22-FLAXPYT-IR-03, KR22-FLAXPYT-IR-09, KR22-FLAXPYT-IR-14, KR22-FLAXPYT-IR-16 va KR22-FLAXPYT-IR-22 tizmalari vegetatsiya bosqichlariga ertaroq kirishi bilan ajralib turdi. Ayniqsa, KR22-FLAXPYT-IR-03 tizmasi unib chiqish, shoxlanish, g‘unchalash va gullash fazalarida eng erta rivojlangan istiqbolli namuna sifatida baholandi. Tadqiqot natijalari ushbu tizmalarni qisqa vegetatsiya davriga ega, erta pishar va seleksiya ishlarida boshlang‘ich genetik manba sifatida foydalanish mumkinligini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umurzakov A. A., Sheraliyev A. A., Allaberganova M. M. Agrobiological study of a new legume Cajanus cajan culture in Uzbekistan // BIO Web of Conferences. — 2024. — Vol. 89. — 01008. DOI: 10.1051/bioconf/20248901008.

2. Rubiales D. et al. Legume Breeding for the Agroecological Transition of Global Agri-Food Systems: A European Perspective // Frontiers in Plant Science. — 2021. — Vol. 12. — 782574.

3. Rubiales D. et al. Frontiers in Plant Science. — 2021.

4. Azimov A., Shavkiev J., Saidjanov S., Ziyaev Z., Valiyev L. Mung Bean (Vigna radiata L.) genotypes assessment for drought tolerance in Uzbekistan // Journal of Wildlife and Biodiversity. — 2023. — Vol. 8, № 1. — P. 65–75. DOI: 10.5281/zenodo.10171284.